

## Chimyonda dam oluvchilar uchun yo'lsozlar sovg'asi

---



**Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi Chimyon tog'-chang'i kompleksiga olib boruvchi avtomobil yo'li ta'mirdan chiqarildi. Bu esa – yoz mavsumini ko'ngildagidek hordiq bilan o'tkazuvchi yurtdoshlarimiz uchun yo'lsozlarning o'ziga xos sovg'asidir.**

"O'zavtoyol" DAK tizimiga kiruvchi Toshkent viloyatidagi Qibray va Bo'stonliq tumanlari yo'l xo'jaligi pudrat-ta'mirlash foydalanish korxonalaridan viloyat hududidan o'tuvchi 4K-700 "Toshkent-O'nqo'rg'on-Yonariq" avtomobil yo'lining 2-6 kilometrari oralig'ida va 4R6 "Toshkent shahri-Chirchiq shahri-Chimyon qishlog'i" yo'nalishidagi avtomobil yo'lining 56-66 va 76-92 kilometrari oralig'ida to'liq va joriy ta'mirlash hamda saqlash ishlari bajarildi. Bu esa Toshkentdan Chimyonga olib boruvchi hududlarga to'g'ri keladi.

Asosiy maqsad - avtomobil yo'llarining holatidan kelib chikib, yo'lning qatnov qismini yaxshilash, avtomobillar harakatini to'xtovsiz tashkil etish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashdir. Shu maqsadda avvalo yo'lning qatnov qismini yaxshilanib, yangi qoplamalar o'rnatish, temir-beton to'siqlar va lotoklarni yangilash, obodonlashtirish, yo'l belgilarini yangilash kabi va boshqa ishlar amalga oshirildi. Ma'lumot o'rnida aytib o'tish kerakki, bu yo'nalishdagi ta'mirlash ishlari bugun ham davom etmoqda.

***"O'zavtoyol" AK matbuot xizmati***